

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

manbalar asosidagi tahlili.....	347
G.Sh.Shaydullayeva	
Turon sivilizatsiyasi aholisining ijtimoiy holatiga madaniy aloqalarning ta'siri.....	353
I.S.Aslonov	
O'zbekiston SSRda 1960–1980-yillarda qishloq xo'jaligi boshqaruvida byurokratik muammolar va davlat mulkini talon-taroj qilish holatlari.....	358
X.Burxanov	
Raqamli jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmlari	362
N.R.G'ulomova	
Ziyorat turizmi: uning tarixiy-tadrijiy rivojlanishi va o'ziga xos xususiyatlari.....	367
Sh.F.Allanazarov	
Komil Xorazmiy asarlarida ijtimoiy-iqtisodiy hayot tahlili.....	380
A.T.Toshmamatov	
O'zbek va ukrain xalqlari madaniy uyg'unligining tarixiy namoyasi: Xasanovlar oilasi misolida	380
Sh.A.Mirzamidinova	
Ashurali Zohiriyning shaxsiyati, faoliyati va merosi.....	384
O.B.Abdunosirova	
Amir Temur va Temuriylar davrida pul munosabatlari	390
M.X.Muzaffarov	
Vengriya va Turkiy dunyo: tarixiy bog'lanish va aloqalari.....	393
S.F.Norbekov	
Sharqiy Slavyan diasporasining Turkistondagi madaniy va ma'rifiy hayoti (1918–1924 yy.).....	398

ILMIY AXBOROT

I.T.Boltaboev	
Ijtimoiy adolat konsepsiyasining zamonaviy falsafiy talqinlari.....	409
I.S.Aslonov	
O'zbekiston SSRda 1945–1980 yillarda sug'orish va melioratsiya tizimining rivojlanishi	413
N.M.Axmadiyev	
Yangi O'zbekistonda kelesajak avlod tarbiyasiga gerontologik moyiyatini yanada rivojlantirish.....	417
B.X.Karimov	
Ongni boshqarish falsafasi hamda globallashuv sharoitida inson tafakkuri barqarorligini ta'minlashning zamonaviy konsepsiyasi	420
E.X.Zoyirov	
Ya'qub Charxiy ta'limotida borliq nazariyasi.	425
Sh.T.Abbosova	
Buyuk ipak yo'lida ilm-fan va madaniy muloqot rivoji.....	431
Sh.N.Niyozova	
Vatanparvarlikning ma'naviy-falsafiy mohiyati va shaxsning ijtimoiy-axloqiy yetukligi.....	434
Sh.X.Matyobubova	
Xorazm vohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va ularning Yangi O'zbekistonga ta'siri.....	438
R.D.Dehqonov	
Teatr san'atining yoshlar ruhiy-axloqiy rivojlanishiga ta'siri	442
Z.T.Tursunboyev	
O'zbekistonda oilaviy zo'ravonlikning oldini olishda konformizm omilining ahamiyati	446
R.D.Dehqonov	
Yangi O'zbekistonda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda teatr san'atining o'rni.....	451
Z.T.Tursunboyev	
“Tazyiq va zo'ravonlik” tushunchalari: turlari va oilada oldini olish mexanizmlari	455
N.T.Xolikov	
Globalashuv sharoitida egoistik tafakkur shakllanishini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari.....	459
Sh.A.Rasulova	
Harakatlar strtegiyasidan Yangi O'zbekistongacha: xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy mavqeini mustahkamlanishi	462
A.A.Aloxunov	



UO'K: 101.1

GLOBALASHUV SHAROITIDA EGOISTIK TAFAKKUR SHAKLLANISHINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ЭГОИСТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ****THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF RESEARCHING THE FORMATION OF EGOISTIC THINKING IN THE CONDITIONS OF GLOBALIZATION****Xolikov Nuriddin To'ychiyevich** 
Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi**Annotatsiya**

Ushbu maqolada globalashuv sharoitida egoistik tafakkur shakllanishini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari, globalashuv sharoitida egoistik tafakkur shakllanishi falsafiy-konseptual tahlili, globalashuv sharoitida egoistik tafakkurga qarshi altruizm motivatsiyasini rivojlantirish istiqbollari tahlil qilinadi. Maqolada globalashuv sharoitida egoistik tafakkur shakllanishini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari o'rganiladi.

Аннотация

В статье анализируются теоретико-методологические основы исследования формирования эгоистического мышления в условиях глобализации, философско-концептуальный анализ формирования эгоистического мышления в условиях глобализации, перспективы развития альтруистической мотивации против эгоистического мышления в условиях глобализации. В статье рассматривается философско-концептуальный анализ формирования эгоистического мышления в условиях глобализации.

Abstract

This article analyzes the theoretical and methodological foundations of studying the formation of egoistic thinking in the context of globalization, the philosophical and conceptual analysis of the formation of egoistic thinking in the context of globalization, and the prospects for developing the motivation of altruism against egoistic thinking in the context of globalization. The article studies the philosophical and conceptual analysis of the formation of egoistic thinking in the context of globalization.

Kalit so'zlar: globalashuv, ijtimoiy-falsafiy tahlil, egoistik tafakkur, altruizm, motivatsiya, do'stlik va mehr-muhabbat tuyg'usi, altruistik tafakkur.

Ключевые слова: глобализация, социально-философский анализ, эгоистическое мышление, альтруизм, мотивация, дружба и любовь, альтруистическое мышление.

Key words: globalization, socio-philosophical analysis, egoistic thinking, altruism, motivation, friendship and love, altruistic thinking.

KIRISH

Jahonda global o'zgarishlar sharoitida egoistik tafakkur, xudbinlik sifatleri va o'z manfaatlarini hamma narsadan ustun qo'yuvchi, ijtimoiy hamjihatlik va birdamlikka tahdid soluvchi illatlarni oldini olish mexanizmlarni rivojlantirish vazifalari dolzarblik kasb etmoqda. Globalashuv jarayonlarining ijtimoiy munosabatlarga ta'sirining dinamik tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, jamiyatlarda egoistik tafakkurga qarshi oliyjanoblik va futuvvat g'oyalarini rivojlantirish, al'truistik fazilatlarini yuksaltirishda yangicha yondashuvlar asosida ijtimoiy shartnoma, kelishuv va murosaga asoslangan hamjihatlik muhitini shakllantirish zarurati ortib bormoqda. Shu bois, egoistik tafakkurni shakllanishi va namoyon bo'lish shakllarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun ham, globalashuv sharoitida egoistik tafakkur shakllanishi va uni oldini olishning falsafiy-konseptual tahliliga qaratilgan falsafiy tadqiqotlarga ehtiyoj yuzaga kelmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Global o'zgarishlar sharoitida egoizm, egositik sifatlar va egoistik tafakkurni shakllanishi, rivojlanishi, namoyon bo'lish shakllari, egoistik tafakkurni ijtimoiy barqarorlik va hamjihatlikka, shaxsiy rivojlanishga ta'siri masalalari G.Avxach, M.Burke-Beltran, K.Abulxanova-Slavskaya, Sh.Amonashvili, V.Muxina, Sh.Nadirashvili, YE.Subbotskiy, O.Kont, D.Mayyers, V.Kim, A.Smit,

L.Kolberg, J.Piaje, P.Ekman, D.Feldshteyn, S.Yakobson, M.Isoqova, N.Safaev, B.Botirov, Z.Nishanova, I.E.Xudoyberdiev, I.R.Xo'jamurodov kabi olimlarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bizga ma'lumki, XX asr oxiri va XXI asr boshida dunyo bir-biriga bog'liq elementlardan iborat bo'lgan yaxlit tizimga aylanib bordi. Bu esa globallashuv jarayonini jahon siyosati va xalqaro munosabatlarda asosiy omilga aylantirdi hamda ushbu fenomen jahon siyosati fanida bosh paradigma sifatida qabul qilindi. Demak, yuqorida qayd etilgan davrlarda globallashuv har qanday rivojlanishning asosiy omili va tendensiyasiga aylandi. Sababi har bir davrning rivojlanish qonuniyatlari va asosiy tendensiyalari bo'lgani singari biz yashayotgan informatsion jamiyatning ham rivojlanish qonuniyati globallashuv hodisasidir. Buning mohiyati shundaki, bugungi kunda hech bir davlat biqiq holatda avtarkiya sharoitida tashqi dunyodan uzilgan holatda yashay olmaydi, ya'ni bunday davlat taraqqiyotga erishisha olmaydi. Shuningdek ayrim dolzarb muammolar borki, ularni bir yoki ikkta davlat miqyosida hal etib bo'lmaydi. U jahon hamjamiyati e'tiboriga muhtoj. Bu esa davlatlarning tabiiy ravishda globallashuv jarayoniga tortilishiga olib keladi. Ko'rinib turibdiki qonuniyatni o'zgartirish mumkin emas.

Bundan tashqari globallashuvning demokratizatsiya, informatizatsiya kabi jarayonlari jamiyat rivojida alohida ahamiyatga ega. Jumladan, demokratizatsiya jarayonida sotsiumning elementlari ierarxiyasida jiddiy o'zgarishlar ro'y beradi. Ushbu ierarxiya quyidagicha strukturaga ega bo'ladi: shaxs-jamiyat-davlat. Bunda davlat shaxs va jamiyat manfaatlarini ta'minlovchi instrument vazifasini o'taydi. Jahon arenasida o'z nufuziga ega bo'lishni istagan har qanday davlat ushbu ierarxiyaga amal qilishi lozim.

Axborotlashuv jarayoni ham shaxs rivojida muhim ahamiyatga ega. Bunda shaxs o'zining axborotga bo'lgan ehtiyojini etarli darajada qondiradi. Shuningdek u ham informatsiya resursiga ega bo'ladi, ham dunyoqarashini zamonaviy talab darajasida shakllantiradi. Ammo yuqoridagi ijobiy xususiyatlariga qaramasdan globallashuv hodisasi uchinchi dunyoda negativ qabul qilinadi. Jumladan, AQShlik professor Dennis Brutusning fikricha, globalizatsiya «profits before people», ya'ni «foyda insondan muhim» prinsipi asosida harakat qilmoqda. Uning bahosiga ko'ra, globalizatsiyaning tarqalishi bilan ijtimoiy hayotda inson qadri yo'qoldi, pul axloq ustidan hukmronlik o'rnatdi.

Albatta globallashuv jarayonining salbiy oqibatlaridan ko'z yumib bo'lmaydi. Ayniqsa uning madaniy standartizatsiya, informatizatsiya va qadriyatiy universalizatsiya jarayonlari milliy identifikatsiya krizisini keltirib chiqaradi. Ammo bunday salbiy holatlarni oldini olishning samarali yo'li bu- ushbu jarayonning faqatgina ta'sir ob'ekti emas, balki sub'ektti ham bo'lishdir. Bugungi kunda ayrim davlatlarni hisobga olmaganda dunyoning deyarli barcha mamlakatlari globallashuvning ob'ekti hisoblanadi. Masalan, Yaponiya ushbu jarayonning ham ob'ekti, ham sub'ekti. U globallashuvning ob'ekti sifatida G'arb qadriyatlarini o'zlashtirib, sub'ekt sifatida ularni adaptatsiyalashgan ko'rinishda Osiyoning boshqa mamlakatlariga taqdim etmoqda.

Taniqli nazariyotchi va mutaxassislar tomonidan bildirilgan fikrlar asosida globallashuvning mazmun-mohiyatiga e'tibor qaratar ekanmiz, uning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda salbiy jihatlari ham tahdid sifatida namoyon bo'layotganini anglab, ijtimoiy hayotda bunday hodisalarning guvohi bo'lamiz. Fikrimizcha, globallashuv fenomenini to'liq idrok etish uchun uni ikki guruhga bo'lib o'rganmoq muammo mohiyatini anglashni osonlashtiradi: pozitiv globallashuv va negativ globallashuv.

Pozitiv globallashuv milliy xususiyat, mentalitet va qadriyatlarni hisobga olgan holda umuminsoniy manfaatlarini ifodalovchi jarayondir. Bunga xalqaro demokratik taraqqiyot, huquqiy davlatchilik, fuqarolik jamiyati, xalqaro saylov tizimi, OAV faoliyatini demokratlashtirish, xalqaro muammolarni birlashib hal etish, moliyaviy globallashuv, madaniyatlararo aloqalar, jahon miqyosida qashshoqlikka qarshi kurashish, aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, turfa epidemiyalarga qarshi umumiy faoliyat, umumiy majburiy ta'lim, xotin-qizlar haq-huquqlarini himoya qilish, bolalar huquqlarini himoya qilish, turfa urushlarning oldini olish kabi masalalarda o'zaro yakdil faoliyat yig'indisi kiradi.

Negativ globallashuv milliy qadriyatlarga va xavfsizlikka tahdid sifatida kirib kelishga urinayotgan jihatlardir. Bunga terrorizmning keng quloch yoyishga intilishi, ekologik tahdidlar, moliyaviy inqirozlar, muayyan hududda narx-navolarning ko'tarilishi natijasidagi umumiy tanqislik, narkotik moddalar oboroti, turfa yuqumli kasalliklar tahdidi, "ommaviy madaniyat" ko'rinishida namoyon bo'luvchi axloqsizliklar, bir jinslilar orasida nikohlar va h.k.lardir. Shu o'rinda Hindistonning

ILMIY AXBOROT

masihur davlat arbobi Mahatma Gandining fikri e'tiborli: "Men uyimning darvoza va eshiklarini doim mahkam berkitib o'tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga, ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo'lib uyimni ag'dar-to'ntar qilib tashlashi, o'zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman".

Ijtimoiy hayotda me'yor kategoriyasining doimiy amal qilishi umum taraqqiyotni ta'minlashi uchun xizmat qilishdek, globallashuv jarayonlari rivojida ham me'yor kategoriyasini qo'llash jamiyatning barqaror rivojini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ma'lumki, bugungi kunda dunyoda sodir bo'layotgan eng muhim jarayonlardan biri - globallashuvdir. "Globallashuv jarayon sifatida xalqlar o'rtasida hech qanday to'siqlar va chegaralarsiz bir-biridan ajratilmagan dunyoni yagona o'zaro bog'langanligining qaror topishi sifatida talqin qilinadi.

Globallashuv – ijtimoiy-tarixiy, g'oyaviy, madaniy va ma'naviy jarayon sifatida insoniyatning o'zaro manfaatli umumiylikka intilishining real natijasidir. Ushbu konseptual g'oyadan kelib chiqib, globallashuvni quyidagi guruhlariga bo'lishimiz mumkin: tarixiy globallashuv; g'oyaviy globallashuv; madaniy-ma'naviy globallashuv; iqtisodiy-siyosiy globallashuv.

Globallashuv jarayoni ta'sir ko'rsatmagan birorta jarayon, ijtimoiy institut yoki geografik mintaqaning o'zi mavjud emas. Globallashuv davrida ijtimoiy ong hamda faoliyatning barcha shakllarida bo'lgani kabi axloq va dinning ham globallashuvi ro'y bermoqda, ularning ichki strukturasida va ijtimoiy hayotda amalga oshirib kelgan vazifalarida sifatii o'zgarishlarga uchradi va ushbu jarayon bugungi kunda ham davom etmoqda. Axloq va dinning globallashuvini o'rganish ular o'rtasidagi munosabatlarning bugungi kundagi o'ziga xos jihatlarni tadqiq etishda muhim jihatlardan biri hisoblanadi.

XULOSA

Zamonaviy dunyodagi milliy-madaniy chegaralarning amalda yo'qolib borishi oqibatlarini har doim ham taxmin qilib bo'lmaydigan madaniy va etnik o'zgarishga olib keldi. An'anaviy ijtimoiy ma'naviy borliqning o'zagini tashkil etuvchi an'anaviy qadriyatlar qaytadan ko'rib chiqilmoqda. Ayniqsa, liberal g'oyalar ta'siri ostida axloq sezilarli o'zgarishiga olib kelib, o'zining asl mohiyatidan uzoqlashib bormoqda. O'z o'rnida ta'kidlash mumkinki, "an'anaviy axloqiy qadriyatlar o'z tabiatiga ko'ra qat'iy axloqiy va absolyut g'oyalar hamda tamoyillar bilan bog'liq bo'lsa, o'zgaruvchan jamiyatdagi qadriyatlar esa o'tkinchi xoyu havas va barqaror emasligi bilan xarakterlanadi". Qolaversa, bugungi kunda bir millatli yoki faqat bir diniy konfessiyaga mansub ijtimoiy guruhlar yashydigan mamlakatlarning soni kamayib bormoqda, jamiyatning ma'naviy hayoti o'zga din va millatga mansub kishilarga nisbatan ochiqlik tamoyili asosida rivojlanmoqda. Umuman olganda, din va axloqning ma'naviy borliqdagi o'zaro ta'sirlashuv jarayoni ahloqiy me'yor va qadriyatlarni ma'lum bir tizimga solish va mustahkamlashga olib keladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бек У. Что такое глобализация? Ошибки глобализма — ответы на глобализацию. —М.: Прогресс-Традиция, 2001
2. Исокова М.Т. Миллий анъаналар ва ижтимоий омиллар таъсирида илк ўспиринларда маънавий тасаввурларнинг шаклланиши/ П.ф.н. дисс. — Т.: ТДПУ. 1999
3. Отамуратов С. Глобаллашув ва миллат.- Т.: "Янги аср авлоди", 2008. — Б.64-65
4. Философия и культура. Научный журнал РАН. 2009 год, № 11 М. Nota Bene 2009
5. Шермухаммедов С. Фалсафа ва ижтимоий тараққиёт. Тошкент: 2005